
Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raislari uchun o'quv-amaliy seminar o'tkazildi

Farg'ona shahridagi 41-maktabda xotin-qizlar tashkilotlarining maktablarda faoliyat yuritayotgan boshlang'ich tashkilotlari faoliyati bo'yicha «Qizlar tarbiyasida buvijonlar o'rni» va «O'quvchilarni qo'shimcha kasbga o'rgatish» mavzusida o'quv-amaliy seminari tashkillandi.

Seminarda Farg'ona shahridagi 45 ta maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari va xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raislari, xalq ta'limi bo'limi xodimlari ishtirok etishdi.

Seminar qatnashchilari maktabda ko'p yillar ishlab, hozirda nafaqada bo'lgan faxriy ustozlar, buvijonlar bilan tashkillangan mashg'ulotda ishtirok etdilar. Shuningdek, rassomchilik, vebkontent administratori, kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatish, milliy taomlar oshpazi yo'nalishida faoliyat yuritayotgan mashg'ulotlar bilan tanishdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-07 17:44:56